

TARJIMADA DINAMIK EKVIVALENTLIK

TO‘LANBOYEVA MEXRINISO

ADCHTI tarjima yo‘nalishi 1- kurs talabasi

Ilmiy rahbar: **AXMEDOVA MUXAYYOXON**

Annotatsiya

Ushbu maqolada Eugen Nidaning dinamik ekvivalentlik nazariyasi haqida gap ketadi. Unda bir qator o‘zbekcha, ruscha va inglizcha misollar bilan mavzu yoritilgan. Dinamik ekvivalentlik bilan formal ekvivalentlik taqqoslanib, dinamik ekvivalentlikning afzallik va noafzallik tomonlari ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: dinamik ekvivalentlik, formal ekvivalentlik, tarjimashunoslik, kommunikativ vazifa, grammatik shakl

Аннотация

Данная статья посвящена теории динамической эквивалентности Южин Ниды. В ней тема раскрывается на основе ряда узбекских, русских и английских примеров. Также проводится сравнение динамической и формальной эквивалентности, рассматриваются преимущества и недостатки динамической эквивалентности.

Ключевые слова: динамическая эквивалентность, формальная эквивалентность, переводоведение, коммуникативная функция, грамматическая форма

Annotation

This article discusses the theory of dynamic equivalence proposed by Eugene Nida. The topic is explained through a number of Uzbek, Russian, and English examples. Dynamic equivalence is compared with formal equivalence, and the advantages and disadvantages of dynamic equivalence are examined.

Keywords: dynamic equivalence, formal equivalence, translation studies, communicative function, grammatical form.

Tarjima xalqlar o‘rtasidagi madaniy, ilmiy va adabiy aloqalarni rivojlantiruvchi muhim vositalardan biridir. Tarjima jarayonida matnning nafaqat mazmuni, balki uning ruhiyati, uslubi va o‘quvchiga ta’siri ham saqlanishi lozim. Shu sababli tarjimashunoslikda “ekvivalentlik” tushunchasi muhim o‘rin egallaydi. Ekvivalentlik — asl matn bilan tarjima matni o‘rtasidagi mazmuniy va funksional moslikdir.

Tarjimashunos olim Eugene Nida tomonidan ilgari surilgan “dinamik ekvivalentlik” nazariyasi tarjima amaliyotida katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Bu nazariyaga ko‘ra, tarjima o‘quvchiga original matn o‘quvchisiga ko‘rsatilgan ta’sirni bera olishi kerak.

Dinamik ekvivalentlik — tarjimada so‘zma-so‘z moslikni emas, balki ma’no va ta’sirning tengligini saqlashga qaratilgan yondashuvdir. Bu usulda tarjimon asosiy e’tiborni matnning kommunikativ vazifasiga qaratadi.

Eugene Nida dinamik ekvivalentlikni quyidagicha izohlaydi: tarjima o‘quvchida original matn o‘quvchisidagi kabi taassurot uyg‘otishi kerak. Demak, tarjimada har bir so‘zni aynan ko‘chirish emas, balki mazmuni tabiiy va tushunarli yetkazish muhim hisoblanadi.

Masalan: “To New Castle with coals.” – gapi o‘zbek tiliga “Nyu Kaslga ko‘mir olib borish” – deb tarjima qilinadi. Bu ibora so‘zma-so‘z tog‘ri tarjima deb hisoblansa ham, ma’noni kuchini yo‘qotgan. Aslida bu madaniy birlikni tarjimasi “Nyu Kaslda” ko‘mir koni borligi, u yerga ko‘mir olib borish behuda ish ekanligi haqida gap ketadi. Demak, keraksiz ish bajarilganda ingliz tilida shu ibora qo‘llanishi bejiz emas. O‘zbek tiliga bu iborani tarjima qilish uchun biz o‘zbek tilida shu ma’noni beradigan “O‘rmonga o‘tin bilan borish” maqolni berishimiz. Rus tilida bu “В Тулу со своим самоваром” to‘g‘ri keladi, chunki Rossiyaning Tula shahrida samovarning yarmarkasi bo‘ladi va turli samovarlar namoyishi o‘tkaziladi. U shaharga samovar bilan borish oshiqcha ish hisoblanadi.

Dinamik ekvivalentlikda tarjima qilinayotgan asardagi matn mazmunini xuddi asliyatdek ta’sirli qilish – eng muhim masala.

Tarjimashunoslikda dinamik ekvivalentlik ko‘pincha formal ekvivalentlik bilan taqqoslanadi. Formal ekvivalentlikda so‘z va grammatik shakl saqlanadi. Dinamik ekvivalentlikda ma’no va ta’sir saqlanadi. Formal ekvivalentlik so‘zma- so‘z tarjimaga

yaqin bo‘ladi, dinamik ekvivalentlik erkin tarjimaga yaqin hisoblanadi. Formal ekvivalentlikda til shakliga e’tibor beriladi, dinamik ekvivalentlikda o‘quvchi tarjimani aslyatdek o‘qib ta’sirlanishi muhim. Formal ekvivalentlik ilmiy va rasmiy matnlarda ko‘proq qo‘llanadi, dinamik ekvivalentlik badiiy va og‘zaki nutqda ko‘proq foydalaniladi. Formal ekvivalentlikda tarjimon original matn shaklini imkon qadar saqlashga harakat qiladi. Dinamik ekvivalentlikda esa o‘quvchining matnni qabul qilishi muhim hisoblanadi.

Badiiy asarlarda obrazlilik, hissiyot va milliy madaniyat muhim o‘rin tutadi. Shu sababli dinamik ekvivalentlik badiiy tarjimada keng qo‘llanadi. Masalan, ingliz tilidagi ayrim iboralar yoki hazillar boshqa tilda aynan tushunilmasligi mumkin. Tarjimon o‘quvchi uchun tushunarli va tabiiy variantni tanlaydi. Hozir misol qilib bermoqchi bo‘lgan iboramiz ham tarjimada muammolarga duch kelishi tabiiy: “Break a leg” – tarjimasi “Oyog‘ingni sindir” deb beriladi. Bu o‘zbek tilida salbiy yoki haqoratdek eshitiladi. Aslida esa ingliz madaniyatida bu hazilomuz tarzda “Omad!” degani. Bu ko‘pincha sahnaga chiqish qiladigan kasb egalariga nisbatan ishlatiladigan ibora bo‘lib, dinamik tarjimada “Omad tilayman!” yoki ta’sirliroq bo‘lishi uchun “Sahnani yorib tashla!” deganidir.

Bu kabi iboralar tarjimada dinamik ekvivalentlik zarurligini ko‘rsatadi. Agar tarjimon iborani aynan tarjima qilsa, ma’no yo‘qoladi yoki kulgili holat paydo bo‘ladi. Shu sababli ma’no va madaniy kontekstni saqlash muhim hisoblanadi. Bu usulda iboraning hissiy ta’siri saqlanib qoladi.

Shunday qilib, dinamik ekvivalentlikning tarjimada afzallik tomonlarini ko‘rib chiqamiz: tarjima tabiiy va ravon chiqadi, o‘quvchi matnni o‘z ona tilida o‘qigandek oson tushunadi, asarning kuchli hissiy ta’siri saqlanadi, turli xil madaniy tafovutlarni oldini oladi vanihoyat kitobxon bilan muallif o‘rtasidagi kommunikativ maqsad muvaffaqiyatli amalga oshiriladi.

Tanganing ikki tomoni bo‘lganidek, har bir nazariyaning noafzallik tomonlari ham mavjud: unda tarjimon original shakldan uzoqlashishi mumkin, ba’zi hollarda muallif

uslubiy yoʻqolishi mumkin, tarjimonga katta masʼuliyat yuklanishi mumkin, subʼyektiv talqin yuzaga kelish xavfi mavjuddir.

Xulosa qilib shuni aytamizki, dinamik ekvivalentlik tarjimashunoslikdagi eng muhim nazariyalardan biri hisoblanadi. U tarjimada matnning tashqi shaklidan koʻra, uning mazmuni va oʻquvchiga koʻrsatadigan taʼsirini saqlashni asosiy maqsad deb biladi. Ayniqsa badiiy tarjimada bu usul samarali natija beradi. Zamonaviy tarjimashunoslikda dinamik ekvivalentlik turli xalqlar madaniyatini bir-biriga yaqinlashtiruvchi muhim vosita sifatida baholanadi.

Adabiyotlar roʻyhati:

1. Eugene Nida. *Toward a Science of Translating*. Leiden, 1964.
2. Eugene Nida, Charles Taber. *The Theory and Practice of Translation*. Leiden, 1969.
3. Peter Newmark. *A Textbook of Translation*. New York, 1988.
4. Mona Baker. *In Other Words: A Coursebook on Translation*. London, 1992.
5. Lawrence Venuti. *The Translator's Invisibility*. London, 1995.
6. Axmedova, M., & Maxmudova, G. (2024). TARJIMADA IBORALARNING EKVIVALNETLIGI. *XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYALAR*, 1(1), 182-183.
7. Ahmedova Muhayyo [The problems of translation](#) (2017) Минск БГУ